Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24319494


Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami *Andijan 2023 yil 10-noyabr*

DORIXONA FARMASEVTIK TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA TASHKILIY HUJJATLARNING O'RNINI YUKSALTIRISH.

Yuldasheva Oyjamol Qosimovna
Andijon Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi,
Farmatsiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Ma'lumki, har qanday tashkilot tashkil etilar ekan, birlamchi hujjatlar tayyorlash talab etiladi. Dorixona tashkilotlari faoliyatida tashkiliy hujjatlarning ahamiyati nihoyatda katta bo'lib, dorixona faoliyatini huquqiy jihatdan asoslashda, yuridik maqomini belgilashda, xodimlar faoliyatini hujjatlashtirishda keng foydalaniladi.

Tashkiliy xujjatlar - tashkilotning huquqiy maqomini, faoliyatini belgilaydi va bu hujjatlar quyidagi masalalarni mazmunan aks ettiradi:



Yo'riqnoma deyilganda tashkilot, uning bo'linmalari va mansabdor shaxslar faoliyatining tashkiliy, ishlab chiqarish va maxsus jihatlarini tartibga soluvchi, qonunlar yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni izohlagan holda tuzilgan huquqiy hujjat. Shartnoma deb, ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini belgilash, uzgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan o'zaro kelishuvlariga aytiladi.

Shartnoma atamasi uch ma'noda: yuridik fakt; biron-bir yuridik faktga asoslangan, moddiy yoki nomoddiy manfaatlar tug'risidagi huquqiy munosabat; shaxslar (fuqarolar va tashkilotlar) nima to'g'risida o'zaro kelishsalar, shuni aks ettiruvchi, ifodalovchi xujjat ma'nosida ishlatiladi. Bu erda u o'zining birinchi ma'nosi -yuridik fakt sifatida ko'riladi va o'rganiladi.

Yuridik fakt tushunchasi "Fuqarolik huquqiy munosabat" mavzusida berilgan edi. Bunda yuridik faktlar mazmuni jixatidan ikki asosiy toifaga: yuridik xodisalar va harakatlariga bo'lingan edi. Yuridik harakatlar o'z navbatida huquq yo'l qo'ygan va huquq yo'l qo'ymagan harakatlarga bo'linib huquq yo'l qo'ygan harakatlar sifatida bir tomonlama va ikki tomonlama bitimlar (shartnomalar) ko'rsatilgan edi.

Ikki tomonlama bitimlarning hammasi (olish-sotish, ijara, qarz va boshkalar) shartnoma xisoblanadi. Bir tomonlama bitim, masalan, vasiyatnoma shartnoma bo'la

Published: 10.11.2023

Cite this article: Yuldasheva Oyjamol Qosimovna (2023). Dorixona farmasevtik tashkilotlar faoliyatida tashkiliy hujjatlarning o'rnini yuksaltirish. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319494

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

olmaydi. Binobarin, har qanday shartnomani bitim deyilsa ham, ammo xar qanday bitimni shartnoma deb atab bo‘lmaydi. Demak, shartnoma bitimning bir ko‘rinishi hisoblanar ekan, unga nisbatan bitimga oid barcha qonunlar, jumladan, FKning 9 - bobidagi qoidalar tadbiq etiladi. Shu bilan birga shartnoma o‘ziga taaluqli bo‘lgan boshka maxsus me’yorlar bilan, masalan, kapital qurilishga oid pudrat shartnomasi bu tug‘ridagi maxsus qoidalar bilan ham tartibga solinadi.

Shartnoma huquqiy munosabatlarni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish uchun asos bulib xizmat kiladi. Ammo shartnomaning harakati bu bilan cheklanmaydi. Agar boshqa yuridik faktlar umumiy qoida bo‘yicha huquqiy munosabatni vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish bilan tugallansa, shartnoma maxsus yuridik faktlardan fark qilib, huquqiy munosabatni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishdan tashqari yana huquq me’yorlari bilan belgilangan doiralarda huquqiy munosabatda qatnashuvchilarning xatti-harakatlarini tartibga soladi, huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquq va burchlarini belgilaydi. Shartnoma bilan vujudga keltirilgan huquqiy munosabat davomida shartnoma turlarining xatti-harakatlari qanchalik qonunga muvofiq bo‘lgan-bo‘lmaganligini xam tekshirish imkoniyatini beradi.

Shartnoma tushunchasida asosiy belgi, asosiy shart - taraflarning muayyan natijaga erishishiga qaratilgan o‘zaro kelishuvlardir. Taraflarning har qaysisi tomonidan shartnoma bo‘yicha olinadigan huquq va burchlar har xil bo‘lsa ham, ular oqibatda yagona huquqiy natija beradi, masalan, biron-bir narsaga nisbatan egalik huquqi o‘tkaziladi yoki biron-bir ashyodan foydalanish huquqi olinadi va x.k. Taraflarning kelishuvlari natijasida erishiladigan bevosita aniq natijani mazkur shartnoma tuzishda taraflarning o‘z oldilariga qo‘yilgan asosiy maqsaddan ajratish mumkin. Masalan, metallurgiya zavodi mashinasozlik zavodi bilan muayyan miqdordagi va shart qilingan nav va markali po‘latni etkazib berish tug‘risida shartnoma tuzadi. Bu erda taraflar o‘zaro kelishuvlarining bevosita natijasi metallurgiya zavodi tomonidan mashinasozlik zavodiga shartnoma bilan belgilangan muddatlarda va muayyan shartlarga binoan ma’lum miqdorda po‘lat etkazib berish hisoblanadi. Shartnomaning maqsadi esa har ikki taraf uchun umumiy bulib, taraflarning har qaysisi shartnomaning barcha ko‘rsatkichlarini bajarishdan iborat bo‘ladi. Binobarin, har ikki taraf ham shartnomani lozim darajada bajarishni o‘zlarining burchlari deb biladilar.

- Shartnomalarning turlari qanday bo‘lishi kerak:

1.Shartnoma unda ishtirok etayotgan taraflar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarning o‘zaro taqsimlanishiga qarab bir tomonlama va ikki tomonlamaga bo‘linadi. Bir tomonlama shartnoma ishtirok etayotgan taraflarning biriga faqat huquq bo‘lib, hech kanday majburiyat bulmaydi, ikkinchi tarafda esa, faqat majburiyat bo‘ladi. Masalan, qarz shartnomasida qarzdor olgan pul summasini o‘z vaqtida qarz beruvchiga qaytarishga majbur bulsa, qarz beruvchi qarzga bergan pul summasini talab qilish

huquqiga ega. Ikki tomonlama shartnomada esa har ikki taraf ham huquqqa, ham majburiyatga ega bo‘ladilar. Bunday shartnomaga olish-sotish shartnomasini misol qilib keltirish mumkin. Bu shartnoma buyicha sotuvchi sotilgan ashyoning bahosini talab qilish huquqiga ega bo‘lib, sotilgan ashyoni oluvchiga topshirishga majbur, oluvchi esa -olayotgan ashyoning baxosini to‘lashi zarur bulib, sotib olingan ashyoni talab qilib olishga haqli.

2. Shartnomalar tuzilishi paytiga va mazmuniga karab konsensual va real shartnomalarga bulinadi. Konsensual shartnomalar bo‘yicha xuquq va majburiyatlar taraflarning kelishganlari va shartnomani qonun bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirganlari bilan talab qilingan shaklda rasmiylashtirganlari zahoti paydo bo‘ladi. "Konsensual" so‘zi lotincha "konsensus" so‘zidan olingan bo‘lib, "kelishuv" ma’nosini bildiradi. Konsensual shartnomaga misol qilib olish-sotish, mahsulot etkazib berish, pudrat, mulkni ijaraga berish kabi shartnomalarni ko‘rsatsa bo‘ladi. Fuqarolik huquqida aksariyat shartnomalar konsensual shartnomalar guruhiga kiradi.

Real shartnomalar bo‘yicha xuquq va majburiyatlarni paydo bo‘lishi taraflar o‘zaro kelishgan, shartnomalarni rasmiylashtirgan bo‘lishidan tashqari shartnoma narsasi: ashyo yoki pulning topshirilishi talab qilinadi. "Real" so‘zi - lotincha "res" so‘zidan olingan bo‘lib, "ashyo" ma’nosini bildiradi. Real shartnomaga misol qilib qarz, omonat, hadya, puldan bepul foydalanish shartnomalarini ko‘rsatish mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga tuziladigan shartnomalar umumiy qoida bo‘yicha shartnomadan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar shartnoma tuzishda katnashgan taraflar uchun paydo bo‘ladi. Ayrim hollarda shartnoma uchinchi shaxs foydasiga qaratilib ham tuzilishi mumkin.

Agar uchinchi shaxs o‘ziga shartnoma bo‘yicha berilgan huquqdan voz kechsa, shartnoma tuzgan shaxs, agar shartnomaning mazmuniga xilof kelmasa, bu huquqdan o‘zi foydalanishi mumkin. Shartnomalar, shuningdek, ochiq shartnoma, qo‘shilish shartnomasi va dastlabki shartnoma (ahdnoma) kabi turlarga ham bo‘linadi. Tashkilot tomonidan tuzilgan hamda uning badiiy tashkilot o‘z faoliyati xususiyatiga ko‘ra o‘ziga murojaat qiladigan har bir shaxsga nisbatan amalga oshirishi shart bo‘lgan tovarlar sotish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi vazifalarini (chakana savdo, umumiy foydalanishdagi transportda yo‘lovchi tashish, aloqa xizmati, elektr quvvati bilan ta’minlash, aloqa xizmati energiya bilan ta’minlash, tibbiy xizmat, mehmonxona xizmati va boshqalarni) belgilab qo‘yadigan shartnoma tuzishda bir shaxsni boshqa shaxsga nisbatan afzal ko‘rishga haqli emas (qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari).

Tovarlar, ishlar, xizmatlarning bahosi, shuningdek ommaviy shartnomaning boshqa shartlari hamma iste’molchilar uchun bir xil qilib belgilanadi. Tashkilotning iste’molchiga tegishli tovarlarni berishi, xizmatlar ko‘rsatishi, uning uchun tegishli ishlarni bajarish imkoniyati bo‘la turib ommaviy shartnoma tuzishdan bosh tortishga yo‘l qo‘ymaydi. Tashkilot ommaviy shartnoma tuzishdan asossiz bosh tortganida xaridor (mijoz) uni sud orkali shartnoma tuzishga majbur qilish imkoniyatiga ega (FKning 358-moddasi). Shartnomalarni taraflardan biri formulyarlar yoki boshka standart shakllarda ta’riflagan hamda ikkinchi taraf faqat taklif qilingan shartnomaga

butunlay qo‘shilishi yo‘li bilan qabul qilishi mumkin bo‘lgan shartnoma qo‘shilish shartnomasi deyiladi. bunday shartnomaga misol qilib havo va temir yo‘l transportida yuk va yo‘lovchilar tashish shartnomalarini ko‘rsatish mumkin.

Odatda, bunday shartnomalar mazmuni hamma uchun deyarli bir xil bo‘lib, oldindan belgilab qo‘yiladi va binobarin, mijoz uning shartlarini boshqacha tuzishni taklif etish imkoniyatiga ega emas. Biroq qo‘shilish shartnomasi mijozning o‘z ixtiyori, erki va irodasi bilan shartnomaga qo‘shilishini bildiradi. Bunday shartnomalarni aslo bir tomonlama bitim deb hisoblash mumkin emas. Ko‘shilish shartnomasini bekor qilish yoki shartnomalarni o‘zgartirish asoslari FKning 360-moddasida nazarda tutilgan. Dastlabki shartnoma bo‘yicha taraflar kelgusida mol-mulk berish, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish haqida dastlabki shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida shartnoma tuzish (asosiy shartnoma) majburiyatlarini oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Farmasevtika ishlarini tashkil qilish asoslari. E.Toshmuhamedov. 2008.
2. Экономика фармации. И.Наркевич.
3. Farmatsevtika ishini tashkil qilish. E.Toshmuhamedov, X.Zaynutdinov
4. https://www.afshona-isjst.uz/admin/files/
5. https://e-library.namdu.uz
6. https://azkurs.org/pars_docs